



SAID AHMAD ASARLARIDA HAJVNING O'RNI

Idireysova Dilnoza Abay qizi,

1-kurs

Ahmedova Sarvinoz Alimardon qizi

2-kurs

Qoraqalpoq davlat universiteti, o'zbek filologiya fakulteti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7801177>

ARTICLE INFO

Received: 26th March 2023

Accepted: 04nd April 2023

Online: 05nd April 2023

KEY WORDS

Hajv, hajviy asar, komediya, yumor, satira.

ABSTRACT

Ushbu maqolada yozuvchi Said Ahmadning "Sobiq", "Qoplon" kabuli hajviy hikoyalari, umuman hajviy asarlari haqida so'z yuritiladi. Shu jumladan, adibning "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasining o'zbek adabiyotidagi alohida o'rni e'tirof etiladi.

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Said Ahmad o'z asarlari bilan xalqimiz qalbidan chuqur joy egallagan, hikoyalari bilan xalqimizga tanilgan, roman va felyetonlari bilan yurtimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shgan adib. Yozuvchi nafaqat xalqimiz va kitobxonlari orasida, balki, ustoz adiblarimiz orasida ham o'z o'rni va hurmatiga ega adib. Shu jumladan, u o'z asarlarida G'afur G'ulom yumori, Oybekning psixologik tasvir vositasi va Abdulla Qahhorning teran fikrlash qobiliyatini mujassamlashtirgan mohir hikoyanavisdir. Yozuvchi dastlab xalqimiz orasida o'z hikoyalari bilan hikoyanavis sifatida tanilgan. Uning "Ishqiboz" deb nomlangan dastlabki hajviy hikoyasi "Mushtum" jurnalida bosilib chiqadi. Shundan so'ng adibning birqancha hikoyalari, chunonchi, "Qorako'z majnun", "Tortiq", "Qoplon", "Xanka bilan Tanka", "Hindcha qo'shiq", "Bir o'pichning bahosi", "Xandon pista" kabi bir talay hikoyalari va hajviy asarlari bosmadan chiqdi. Shulardan "Bir o'pichning bahosi", "Xandon pista" kabilar yozuvchining hajviy asarlaridir.

Hajv - [a. • - birovdan kulish; masxara, mazax qilish; satira] Ayrim shaxs yoki ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni kulgi ostiga olib, masxaralab aytilgan (yozilgan) gap, jumla, bayt, asardir. (O'zbek tilining izohli lug'ati (2006-2008))

Hajviy asarlar asosan 2 tipga bo'linadi: satirik va yumoristik.

Satira (lotincha: satira — qurama, har xil narsa) — komiklik turi, tasvir obyektini ayovsiz kulgi vositasi orqali anglash. Voqelikni badiiy aks ettirishning o'ziga xos usuli bo'lib, unda jamiyatdagi bema'ni, asossiz, noto'g'ri hodisalar, illatlar fosh qilinadi. (O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil). Masalan, "Qoplon" hajviy hikoyasida asosan satirik yo'nalishga ko'zimiz tushadi. Chunki yozuvchi bu asarida Qurbonboyga ishora qilib, laganbardor va xushomadgo'y insonlarni itga mengzaydi. Shu bilan birga jamiyatdagi bunday insonlarning qanchalar tuban ko'rinishini ko'rsatib bergan. Shuning uchun ham bu asar achchiq kulguga asoslangan satirik asar deb hisoblanadi.



“Yumor” (lot.) — kulgi bilan xayrixohlikni o‘zida mujassam etgan komiklik turi. Badiiy adabiyotga mansub yumoristik asarda yozuvchi ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy turmushdagi, xususan, ayrim kishilardagi ba’zi kamchiliknuqsonlardan kulib, uni tanqid qiladi. Bunda yozuvchi tanqid qilinayotgan ob’yektning yo‘qotilishiga tarafdor emas, unga achinadi, undagi mavjud kamchilikning tuzalishini istaydi. Yengil tanqid, hazil ruhi bilan yumor satiradylan farq qiladi.

“Sobiq” degan yana bir hikoyasini esa yumoristik tipga kirg‘azishimiz mumkin. Chunki bu asar shunchaki “sobiq” traktorining hayotida ro‘y bergan qiziqarli voqealarni yengil kulgu ostiga olgan.

Said Ahmadning eng mashhur asari bo‘lgan “Kelinlar qo‘zg‘oloni” ham hajviy asardir. Bu asar dramatik asar bo‘lib yurtimizning ko‘plab teatrlarida sahnaga qo‘yilgan va qo‘yilib kelmoqda. «Kelinlar ko‘zg‘oloni» dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ham sahnalashtirilgan. Masalan, Janubiy-Sharqiy Osiyodagi Laos Xalq Respublikasida sahnalashtirilgan. Asar sovet davrida olingan eng yaxshi o‘zbek kinokomediyalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari adibning “Kuyov”, “Farmonbibi arazladi” kabi kinokomediyalari ham mavjud.

Umuman olganda yozuvchining ko‘pchilik asarlarida hajv yetakchi o‘rinni egallaydi va bu jihat Said Ahmad asarlarining o‘ziga xos jihatlaridan biri.

References:

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (2006-2008)
3. www.ziyouz.com